



KASB-HUNAR TA'LIM TIZIMIDA BILIM VA ILMNING UYG'UNLIGI

Eshonqulov Ilxomjon

Farg'ona ICHSHUI kasb-hunar maktabi Jismoniya tarbiya fani o'qituvchisi

Annotatsiya: *Kasb-hunar ta'lim tizimida bilim va ilmning uyg'unligi xaqida ma'lumototlar berilgan.*

Kalit so'zlar: *Ta'lim jarayoni, bilim, ilm tushunchalar, yangi bilim.*

Kasb-hunar ta'lim tizimi, bilim va ilmning uyg'unligini ta'minlash uchun juda muhim ahamiyatga ega. Ushbu tizimda o'quvchilar bilim va hunarlarini rivojlantirish, ularni amaliy amalga oshirish va faol jamiyat a'zolariga foydali bo'lgan kasb-hunarli kadrlar sifatida tayyorlash maqsadga muvofiq ishlaydi. Uyghunlik, o'quvchilarga sohasiga mos bo'lgan bilim va hunarlar o'qitilishi, bu sohada yangiliklarni qabul qilish uchun imkoniyatlar yaratish, amaliy mashg'ulotlar orqali o'quvchi bilim va hunarini mustahkamlash uchun kerakli resurslarni ta'minlash shartdir. Bu tizimda muassasalar, o'qituvchilar va talabalar hamkorlik qilib, ilmiy tadqiqotlar yuritib borish, yangiliklarni dastlabki darsliklarga kiritisa ham bo'ladi. Bunday integratsiya tizimi orqali kasb-hunar ta'limining sifati yuksaladi va o'quv markazining maqsadiga yetadi.

Ta'lim jarayonida "bilim" va "ilm" tushunchalari muhim ahamiyatga ega. Bu tushunchalar bir-biriga bog'liq bo'lsa-da, ular orasida farqlar mavjud.

Bilim - bu shaxsning ma'lumot bir sohadagi faktlar, tushunchalar, qoidalarga oid ma'lumototlarni bilishi va tushunishi.

Bilim quyidagi elementlarni o'z ichiga oladi:

Aniqlangan va tasdiqlangan ma'lumototlar. Masalan, tarixiy voqealar, matematik formulalar.

Muayyan sohadagi umumiy tushunchalar va g'oyalar. Masalan, fizikadagi energiya tushunchasi.

Muayyan sohada amal qiladigan qoidalar va qonuniyatlar. Masalan, grammatika qoidalari yoki tabiiy qonunlar.

Bilim o'rganish jarayonida o'quvchi yangi ma'lumototlarni oladi, ularni tahlil qiladi va o'zlashtiradi.

Ilm.

Ilm - bu yangi bilimlarni yaratish va kashf qilish jarayoni. Ilmiy izlanishlar orqali yangi qonuniyatlar, nazariyalar va tushunchalar aniqlanadi. Ilm quyidagi elementlarni o'z ichiga oladi:

Yangi bilimlarni topish uchun amalga oshiriladigan ilmiy tadqiqotlar.

Yangi tushunchalar va qonuniyatlarni izohlash uchun ishlab chiqilgan ilmiy nazariyalar. Ilmiy nazariyalarni sinovdan o'tkazish va tasdiqlash uchun olib borilgan eksperimentlar. Ilmiy izlanishlar natijasida yangi ma'lumototlar olinadi va bu ma'lumototlar ta'lim jarayonida bilim sifatida o'quvchilarga yetkaziladi.



Ilm-bu eng fazilatli amaldir. Chunki u ikki dunyo saodat kalitidir. Insonning hayotini to'g'ri yo'lga solmagan, uni fe'l-atvorida, amalida ta'siri bilinmagan, to'g'ri yo'lga boshlamagan ilmda yaxshilik yo'q. O'rganilgan ilm emas, amal qilingan ilm haqiqiy ilm hisoblanadi. O'qigan, lekin bilganiga amal qilmagan ilm manfaatsiz ilmdir. Biz dunyoviy ilmlarni o'rgananimizdek, islomiy ilmlarni ham o'rganishimiz kerak. Bu ilmlarni o'rganishimizda bir-biriga halaqit bermasligi zarur. Bu ilmlardan oqilona foydalanib huddi libosdek kiyib olishimiz kerak.

"Ilm" tushunchasi esa, bilim sohasida o'zlashtirilgan bilimdonlik, o'rganish va tajriba, bilim uslublari va amaliyotga tatbiq etish jarayonlariga asoslangan tushunchani bildiradi. "Ilm" so'zi, insonning tabiiy dunyoni, uning o'zini va uning nazoratida bo'lgan qonunlarni o'rganish, tahlil qilish va bu bilimdonlikni amaliyotga tatbiq etishni ifodalaydi. Ilm, bilimning nazariy va amaliy taraqqiyotiga asosiy qo'llanma bo'ladi va uning o'rganish jarayonini ifodalayadi.

"Bilim" tushunchasi, ilm-fan faoliyatining umumiy maqsadi, o'rganish va tajriba asosida yangi bilimni yaratish, amaliyotga tatbiq etish va mavjud bilimni rivojlantirishga oid tushunchani ifodalaydi. "Bilim" so'zi, tadqiqot, tahlil, nazariy va amaliy bilimlarning barchasini o'z ichiga oladi. Bu, rivojlangan metodlar, prinsiplar, qonunlar va normativlar asosida o'rganish, izlanish va bilim yaratish jarayonlarini ifodalayadi.

Bilim-bu xazina. Yillar davomida, xattoki butun umrimiz davomida bilim olishga intilamiz. O'qib o'rganamiz, hayotimizga tatbiq qilamiz. Bilimli bo'lish hozirgi davr talabi. Chunki egallayotgan sohamizda bilimimiz yo'q bo'lsa, o'zimizga ham, boshqalarga ham foyda keltira olmaymiz. Hozirda bilimingizga yarasha mablag' topishingiz mumkin. Bilimni inson o'zi tarafidan shakllantiriladi. Bilimni insonning hayotga qarashi boshqacha bo'ladi. Bilimli inson keng fikr yuritadi. Har bir narsadan oqilona foydalanadi. Bilimni na tortib olsa bo'ladi, na sotib yuborsa bo'ladi. Insonning bilimi hech qachon pand bermaydi. Bilim haqida maqollar ham bor:

Bilagi zo'r birni yig'ar,

Bilimi zo'r mingni.

Ilmni farqi o'rganayotganlariga amal qilishi, hayotiga tatbiq etishidir. Masalan: Qur'onni o'qidingiz, ilm oldingiz, uni shunchaki o'qib qo'yish emas, unda buyurilgan narsalarga amal qilib, butun hayotingiz davomida qo'llay olishingiz kerak.

Bilimni farqi shundaki siz biror sohada o'qidingiz, kimdandir ilm oldingiz va ilmni puxta o'rganib, bilimingizni rivojlantirib ishlamoqdasiz. O'z yo'lingiz topmoqdasiz.

Bilim va ilm tushunchalari asosan o'rganish, tadqiqot va bilim faoliyatini ifodalayadi. Ularning o'zining o'ziga xos xususiyatlari mavjud bo'lsa ham, ular murakkab va uzluksiz tarzda bog'liq va bir-birini qo'llaydigan tushunchalar hisoblanadi. Bilim, umumiy maqsadlarga yo'naltirilgan bilim faoliyatining barcha sohalarini, qonunlarini va prinsiplarini o'z ichiga oladi. Ilm esa bu bilimdonlikning o'zini, uning o'rganish va amaliyotga tatbiq etish uslublarini ifodalayadi.

Ta'lim jarayonidagi o'rni



Bilim: Ta'lim jarayonida o'quvchilar avvalgi izlanishlar natijasi bo'lgan bilimlarni o'rganadilar. Bu bilimlar o'quv dasturlarida aks ettiriladi va o'qituvchilar tomonidan talabalariga yetkaziladi.

Ilm: Ilmiy izlanishlar talabalarning mustaqil fikrlash, muammolarni hal qilish va yangi bilimlarni yaratish qobiliyatini rivojlantiradi. Ta'lim jarayonida ilmiy izlanishlarga e'tibor qaratish o'quvchilarda ilmiy tafakkur va ijodiy qobiliyatlarni rivojlantiradi.

Kasb-hunar ta'lim tizimida bilim va ilmning uyg'unligi ta'limning samaradorligini oshirish va o'quvchilarni haqiqiy hayotda muvaffaqiyatli bo'lishlari uchun zarur bo'lgan ko'nikmalar bilan ta'minlash uchun muhim ahamiyatga ega. Quyida bilim va ilmning uyg'unligini ta'minlash uchun foydalanilishi mumkin bo'lgan ba'zi yondashuvlar va usullar keltirilgan:

1. Amaliy va nazariy ta'limni integratsiya qilish

- Nazariy bilimlarni amaliy mashg'ulotlar bilan bog'lash orqali o'quvchilar bilimni amalda qo'llashni o'rganadilar.

- O'quvchilar nazariy ma'lumotlarni laboratoriya tajribalarida va ish joylarida sinab ko'rishlari kerak.

2. Ishlab chiqarish va ta'lim hamkorligi

- Korxonalar bilan hamkorlikda o'quv dasturlarini ishlab chiqish va o'quvchilarga ishlab chiqarish jarayonlariga qatnashish imkoniyatini taqdim etish.

- O'quvchilarni korxonalarda stajirovka qilish orqali haqiqiy ish muhitida tajriba orttirish.

3. Innovatsion Pedagogik Yondashuvlar

- O'quvchilarni haqiqiy muammolarni hal qilishga jalb qilish orqali bilimni amaliyotga tatbiq etish.

- Talabalar loyihalar ustida ishlash orqali nazariy bilimlarni amaliyotga tatbiq qilishni o'rganadilar.

4. Texnologiyalarni joriy etish

- O'quvchilarga virtual muhitda amaliy tajriba olish imkoniyatini taqdim etish.

- Raqamli platformalar va onlayn kurslar orqali bilim va malakalarni rivojlantirish.

5. Doimiy malaka oshirish

- O'qituvchilarni zamonaviy texnologiyalar va pedagogik yondashuvlar bilan tanishtirish.

- O'qituvchilar va ustalar uchun doimiy ravishda malaka oshirish kurslari tashkil etish.

7. Kreativlik va innovatsiyalarni yordam berish

- O'quvchilarni innovatsion va ijodiy loyihalarda ishtirok etishga undash.

- Hackathon va tanlovlar, sport musobalar: O'quvchilarni ijodiy fikrlashga rag'batlantiradigan tadbirlar tashkil etish.

Bu yondashuvlar kasb-hunar ta'lim tizimida bilim va ilmning uyg'unligini ta'minlashga va talabalarni bozor talablariga javob beradigan yuqori malakali mutaxassislar sifatida tayyorlashga yordam beradi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. <https://packpdf.com/doc/psycho/671-talim-jarayonida-bilim-va-tushunchalarning-shakllanishi>
2. Begimqulov U.S.H. Pedagogik ta'limda zamonaviy axborot texnologiyalarini joriyetishning ilmiy-nazariy asoslari. –T.: “Fan” 2017
3. Haydarov, R. (2022). TEXNOLOGIYA TA'LIMI O'QITUVCHISINING TEXNOLOGIK MADANIYATI. Физико-технологического образование, (3).
4. Kamolovich, B. E., & Hamidullo o'g'li, T. H. (2024). RAQAMLI TEXNOLOGIYALARI DAVRIDA SOHA MUTAXASSISLIK FANI BO'YICHA IQTIDORLI O'QUVCHILAR BILAN ISHLASH. Scientific Impulse, 2(18), 125-131.
5. Hamidullo o'g'li, T. H. (2024). RAQAMLI AXBOROTLARNI QAYTA ISHLASHDA BULUTLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHDA CLOUD-ANDROID, ICLOUD-APPLE IMKONIYATLARI VA FARQLARI. Scientific Impulse, 2(20), 189-193.
6. Hamidullo o'g'li, T. H. (2022). HOZIRGI KUNNING DOLZARB IMKONIYATLARI. JAWS VA NVDA DASTURLARI. Scientific Impulse, 1(2), 535-537.
7. Tursunov, H. H., & Hoshimov, U. S. (2022). Ta'lim tizimida ko'zi ojiz o'quvchilarni informatika va axborot texnologiyalari fanida o'qitish texnologiyalar. Новости образования: исследование в XXI веке, 1(5), 990-993.
8. Gorovik, A. A., & Tursunov, H. H. U. (2020). Scratch misolida bolalarni dasturlashni o'rgatish uchun vizual dasturlarni ishlab chiqish vositalaridan foydalanish. Universum: texnik fanlar, (8-1 (77)), 27-29.
9. Кучаров, С. А. (2021). TEXNOLOGIYA TA'LIMI O'QITUVCHISINING TEXNOLOGIK MADANIYATI. Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал, (1-Махсус сон), 116-118.
10. Тураев, А. А., Хайдаров, Р. М., & Хожиев, Ж. Ж. (2015). Фотовольтаический эффект в диодном режиме включения полевого транзистора. Молодой ученый, (23), 40-43.
11. Mamayusupovich, H. R. (2024). Development Of Professional Competence Of Future Teachers Of Technology In The Process Of Extracurricular Activities. Progress Annals: Journal of Progressive Research, 2(1), 35-37.
12. Mamayusupovich, H. R. (2023). OPPORTUNITIES FOR THE DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL COMPETENCE OF A TEACHER OF TECHNOLOGY. International Multidisciplinary Journal for Research & Development, 10(12).
13. Mamayusupovich, H. R. (2023). BO'LAJAK TEXNOLOGIYA FANI O'QITUVCHILARINI TAYYORLASH JARAYONIDA ELKTRON DARSLIKLARNI QO'LLASHNING AHAMIYATI. Наука и технологии, 1(1).